

OTA-ONA VA MAKTAB HAMKORLIGINING BOLA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Usmonova Gulsanam Ma'rufovna
Andijon viloyati Buloqboshi tumani
68-IDUM amaliyotchi-psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ota-ona va maktab hamkorligining bola tarbiyasidagi ahamiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda sog'lom psixologik muhit yaratishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, oila va maktabning birgalikdagi faoliyati orqali bolada ijobiy fazilatlarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ota-ona, maktab, hamkorlik, bola tarbiyasi, psixologik muhit, ta'lim, muloqot, tarbiya.

KIRISH

Bola tarbiyasi jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Farzandning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida ota-ona va maktabning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila va ta'lim muassasasi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda faoliyat olib boradi.

Oila bolaning ilk tarbiya maskani hisoblanadi. Bola dastlabki axloqiy tushunchalar, muomala madaniyati va hayotiy qadriyatlarni oilada o'rganadi. Maktab esa ushbu tarbiyani davom ettirib, bolada bilim, dunyoqarash va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Psixologik jihatdan ota-ona va maktab o'rtasidagi ijobiy hamkorlik bolaning emotsional barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'ziga nisbatan e'tibor va qo'llab-quvvatlashni his qilganda, uning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Maktab va ota-onaning muntazam muloqoti bolaning xulq-atvori va o'quv faoliyatini nazorat qilishda muhimdir. Bu orqali mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish mumkin. Ota-onalarning maktab hayotidagi faolligi farzand tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Turli yig'ilishlar, tadbirlar va suhbatlarda ishtirok etish hamkorlikni mustahkamlaydi.

Maktab psixologi ham ota-ona va pedagoglar bilan birgalikda ishlashi zarur. Psixologik tavsiyalar va treninglar bola tarbiyasida samarali natija beradi. Hamkorlik jarayonida o'zaro hurmat va ishonch muhim ahamiyatga ega. Ota-ona va o'qituvchi bir-birini tushunib faoliyat olib borsa, bolada ijobiy fazilatlar shakllanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi sababli bolalar tarbiyasiga turli omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli oila va maktabning hamkorligi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bolaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham tarbiyaning

muhim qismi hisoblanadi. Sport, kitobxonlik va ijodiy mashgʻulotlarga jalb qilish bolaning ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi.

Yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday boʻlishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday taʼlim va tarbiya olishiga bogʻliqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni koʻrishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, oʻnib-oʻsib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega boʻlgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – taʼlim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi boʻlishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Hozirgi globallashuv davrida taʼlim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — bu oila, maktab va jamiyat oʻrtasidagi samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyishdir. Chunki bola tarbiyasi faqat maktab yoki faqat oila zimmasidagi vazifa emas, balki ularning oʻzaro uzviy aloqasiga asoslangan kompleks jarayondir. Shu nuqtayi nazardan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish va uni ilmiy asosda yoʻlga qoʻyish masalasi bugungi kunda nihoyatda dolzarb boʻlib bormoqda.

Taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida oila va maktab hamkorligini mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onalarning masʼuliyatini oshirish alohida taʼkidlab oʻtilgan. Bu hujjatlar ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish, ularni farzand tarbiyasining faol subyektiga aylantirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy taʼlim jarayonida ota-onalarning maktab hayotida faol ishtiroki, ularning bola psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish jarayonidagi rolini chuqur anglash psixologik-pedagogik hamkorlikning asosiy mezonidir. Otaonalar majlislari, seminar-treninglar, suhbatlar, psixologik maslahatlar orqali bu hamkorlik tizimli ravishda rivojlantirilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham shuni koʻrsatadiki, AQSh, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi ilgʻor taʼlim tizimlarida oila-maktab sherikligi maxsus dasturlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, AQShda “Parent Involvement Programm” (Ota-onalar ishtiroki dasturi), Yaponiyada esa “School–Home Partnership Model” orqali oʻqituvchi va ota-onalar muntazam muloqotda boʻladilar. Bu tajribalar ota-onalar majlislari faqat maʼmuriy jarayon emas, balki bolaning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida hamkorlik maydoniga aylanganini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston sharoitida esa ota-onalar bilan ishlash jarayonida milliy qadriyatlar, mahalla institutlari, diniy va madaniy anʼanalar muhim rol oʻynaydi. Shu boisdan ham ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishda xalq pedagogikasi gʻoyalari, oʻzbek oilasiga xos mehr-oqibat, hurmat, masʼuliyat kabi tushunchalarga tayanish zarur.

Shuningdek, hozirgi raqamli asrda ota-onalar bilan aloqa faqat an'anaviy uchrashuvlar orqali emas, balki onlayn platformalar (Telegram, Zoom, Google Classroom) yordamida ham amalga oshirilmoqda. Bu esa hamkorlik shakllarining yanada moslashuvchan, ochiq va interfaol bo'lishiga imkon yaratmoqda. Shunday qilib, ota-onalar bilan hamkorlik masalasining dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi;
- Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun oilaviy muhitni mustahkamlashi;
- Ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini yuksaltirishi;
- Maktab, oila va jamiyat o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantirishi; Milliy va zamonaviy tarbiya yondashuvlarini uyg'unlashtirishi.
- Ota-onalar bilan hamkorlikning psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilish.
- Oila muhitining bola rivojiga ta'sirini ilmiy jihatdan yoritish;
- Ota-onaning shaxsiy pozitsiyasi, muloqot madaniyati va farzand tarbiyasidagi roli.
- Ota-onalar bilan hamkorlikning zamonaviy shakl va metodlarini o'rganish.
- Majlislar, seminarlar, treninglar, ota-onalar klublari faoliyatini tahlil qilish; Charxpalak, keys-stadi, muloqot maydoni, "fikrlar devori" kabi interfaol usullarni qo'llash.
- Ota-onalar majlislari ssenariylarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish.
- Ssenariy tuzilmasi, maqsadli yo'nalishlari va muloqot texnologiyalarini ishlab chiqish;
- Pedagog va psixolog faoliyatining o'zaro integratsiyasini ko'rsatish.
- O'zbekiston va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish.
- Finlyandiya, AQSh, Yaponiya kabi mamlakatlarda ota-onalar bilan ishlash tizimlarini tahlil qilish;
- Ularning ijobiy tajribalarini mahalliy sharoitda tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqish.
- Ota-onalar bilan hamkorlik samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
- Maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalar o'rtasidagi kommunikatsiyani takomillashtirish;
- Ota-onalar pedagogik savodxonligini oshirish bo'yicha trening va kurslar ishlab chiqish.

- Oila, maktab va mahalla o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlash. Mahalla fuqarolar yig'ini, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Bolaning ijtimoiylashtirish jarayonida "uchlik hamkorlik modeli"ni shakllantirish.
- Ota-onalar majlislari samaradorligini monitoring qilish va tahlil qilish tizimini yaratish.
- So'rovnoma, intervyu, refleksiya, kuzatuv metodlari asosida natijalarni baholash;
- Ota-onalarning fikr-mulohazalari asosida hamkorlikni doimiy takomillashtirib borish.

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi.

Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi".

Har bir bolaga munosabat ota-onaning ham, o'qituvchining ham Vatanimizga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Tarbiyani faqat oilaga yoki ta'lim muassasasiga tashlab qo'ymay, hamkorlikda ish yuritsagina o'sib kelayotgan yosh avlod barkamol va har tomonlama yetuk bo'lib yetishadi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy bo'g'inlardan biri ota-onalar va mahallalar bilan yaqin hamkorlikda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga mas'ul bo'lgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mustaqil fikrlaydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash;
- Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ichki tartib odob-axloq qoidalariga to'liq amal qilinishini ta'minlash;
- O'quvchilar o'rtasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik, diniy ekstremizm va milliy taraqqiyotimizga zararli boshqa g'oyalarning kirib kelishiga qarshi kurashishni tashkil etish;
- O'quvchi yoshlarning ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonida turli xil chalg'ituvchi vositalar (uyali aloqa vositalari, kompyuterdagi o'yinlar, ommaviy ijtimoiy tarmoqlar) ning zarari va ularning oqibatlarini oldini olish bo'yicha keng targ'ibot ishlarini olib borish;

- O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ta'lim muassasalarining va mahallalarda fan, sport va qiziqishlar bo'yicha to'garaklar faoliyatini kuchaytirish va doimiy nazorat qilish;

Oilada bolani tarbiyalashda kundalik oilaviy va maktab kun tartibini o'rnatish va unga rioya qilishga o'rgatish pedagogik jihatdan katta ahamiyatga egadir. Kundalik qat'iy rejim organizmning bir maromda ishlashi, jismoniy salomatligini saqlash, shuningdek, uni hamma narsani o'z vaqtida bajarishga, mas'uliyat bilan yondashishga, tartibli bo'lishga odatlantiradi. Bolani maktabda qanday o'qishi ko'p jihatdan oilasiga bog'liq bo'ladi. Bolani yaxshi o'qishi uchun moddiy va ma'naviy g'amxo'rlik qilish muhimdir, ya'ni stol-stul, o'quv qurollari va o'qish muhitini yaratib bera olish kerak. O'qituvchi o'zining o'quvchilarining oila muhiti, shart-sharoitlari bilan tanishib chiqishi bolani yanayam yaxshiroq tushinadi. Ota onalar ham bolasini maktabda kimlar bilan o'rtoqlashayotgani, qanday o'qiyotganligidan xabardor bo'lib turishlari lozim.

Ota-onalar farzandlarini bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga bandligini ta'minlash kerak, o'qituvchilar bilan birgalikda bolada kitobga mehrni oshirishi, ota-onalar va o'qituvchilar yoshlarga o'rnak bo'la olishlari muhimdir. Maktabdan tashqari ham qo'shimcha mashg'ulotlar (sport, musiqa yoki til) bilan bo'sh vaqtini band qilishda moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Yoshlar o'rtasida ko'pgina muammolar, yomon yo'llarga kirib ketishi bekorchilikdan kelib chiqadi.

Bola maktabga ro'yxatiga kiritilganch, har bir o'quvchining ota-onasi bilan ta'lim muassasasining rahbarlari, sinf rahbari bilan aloqa bog'laydi. Bolalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarni qanday o'tkazotganligi va bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazish haqida o'qituvchilar ma'lumot berib turishlari kerak. Tarbiya ishlarini hamkorlikda olib borilishi doimo ijobiy natija bergan.

Bola tarbiyasida ularning yosh jihatiga, ruhiyatiga, shaxsiy individual xususiyatlariga alohida e'tibor berishlari zarurdir. Bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ota- on ava o'qituvchilarning ruhan tushinishi muhimdir. Motivatsiya berish, rag'batlantirish, mehr berish va yetarlicha vaqt ajratish yosh avlodni kamol topishida muhim omillardir.

Abdulla Avloniy ham o'zining " Turkiy guliston yoxud axloq" nomli asarida shunday deydi: " Tarbiyani kimlar qilir? Qayerda qilir?" degan savol keladir. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchidan, maktab va madrasa tarbiyasidir", - deydi. Shunday ekan, bola ta'lim tarbiyasida ota-ona savodxonligini oshirish maqsadida yurtimizda turli xil choralar ko'rilyapti. Oliy ta'lim muassasalariga kirishda xotin-qizlarga alohida to'xtalib, ko'p va qo'shimcha kvotalar ajratilishi, magistrga kirgan xotin-qizlarning kantraktlari davlat byudjetidan to'lab berilishi, kantraktlarini to'lashga qiynalayotgan xotin-qizlarga foizsiz ta'lim kreditlari ajratib berilishi, albatta, oiladagi savodxonlikni oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimida ota-onalarga eng yaqin inson bu sinf rahbar hisoblanadi. Ota-ona bilan ishlash, asosan, sinf murabbiyining vazifasiga kiradi. Sinf rahbarining vazifasi sinf jamoasida ota-onalar va bolalar o'rtasida yaxshi atmosferani yaratish, ularga ishonchli va yaxshi maslahatchi bo'la olish, ota-onalarning o'z bolasi tarbiyasida ko'makdosh bo'la olishdir.

Bizning jamiyatimizda bola kamolotida ta'lim muassasasining va oilaning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, to'g'ri yo'lga boshlashdir. Maktab bilan oila o'rtasidagi bolalarni tarbiyalashda o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Har tomonlama barkamol, komil insonni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va maktab hamkorligi bola tarbiyasining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali ma'naviy yetuk, bilimli va barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq". "Cho'lpon", 1994
2. I. A. Karimov, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent – 2008.
3. Mardonov Erkin Xasanovich O'quvchilarda tafakkur xususiyatlarini rivojlanish jarayoni "Zamonaviy talimda pedagogika va psixologiya fanlari" elektron jurnali Jizzax davlat pedagogika instituti. №2.2023.
4. Mardonov, E. (2023). O 'QUVCHILARDA TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI RIVOJLANISH JARAYONI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(2).
5. Xasanovich, M. E. (2023). O'QUVCHILARDA FIKRLASH JARAYONI. Journal of Universal Science Research, 1(6), 847-851.